

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**JAHON BANKI ISHTIROKIDAGI “SOLIQ MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISH” LOYIHASINI  
AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6098-son [Farmoniga](#) muvofiq, shuningdek, respublikada amalga oshirilayotgan soliq islohotlarini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

“Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) amalga oshirish uchun Jahon banki Direktorlar kengashi 2021-yil 16-iyunda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga 30 yil muddatga, shu jumladan 5 yil imtiyozli davr bilan 60 million AQSh dollari miqdorida qarz ajratilishini ma‘qullaganligi;

Loyihani amalga oshirish davri besh yil (2022 — 2027-yillar) etib belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Loyihani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

solliqlarni hisoblash va to‘lashni avtomatlashtirish darajasini 90 foizgacha yetkazish;

soliq organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlar sonini oshirish orqali tadbirkorlik subyektlarini elektron xizmatlar bilan to‘liq qamrab olish;

qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish orqali ushbu soliqning undiruv darajasini 75 foizgacha yetkazish;

soliq to‘lovchilarning soliq hisobotlarini tayyorlash, taqdim etish va solliqlarni to‘lash uchun vaqt sarfini 2 baravargacha kamaytirish.

3. Belgilansinki:

Davlat soliq qo‘mitasi Loyihaning o‘z vaqtida amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, shuningdek, Xalqaro taraqqiyot uyushmasi qarzlardan maqsadli va samarali foydalanish uchun mas‘ul hisoblanadi;

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi tomonidan ajratiladigan qarzni qaytarish, shuningdek, qarz bo‘yicha foiz, xizmat ko‘rsatish va majburiyatlar uchun vositachilik haqi hamda bojxona to‘lovlari, solliqlar va yig‘imlar (bundan ish haqi bilan bog‘liq bo‘lgan solliqlar mustasno) bo‘yicha xarajatlarni qoplash O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

Davlat soliq qo‘mitasiga Ma‘lumotlarni qayta ishlash markazini qurish bilan bog‘liq xarajatlarni qisman Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirishga ruxsat beriladi;

Davlat soliq qo‘mitasi huzurida alohida bank hisob raqamini ochish huquqiga ega bo‘lgan, faoliyati Xalqaro taraqqiyot uyushmasi krediti va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan Loyihani amalga oshirish guruhi tashkil etiladi;

Loyihani amalga oshirish davrida Loyihani amalga oshirish guruhining xarajatlar smetasi har yili Moliya vazirligi bilan kelishiladi;

Davlat soliq qo‘mitasi raisiga Loyihani amalga oshirish guruhi rahbari va xodimlariga Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi hisobidan soliq organlari xodimlari uchun ko‘zda tutilgan tartibda ish haqiga qo‘shimcha haq va ustamalar belgilash huquqi beriladi.

4. Quyidagilar:

Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish” loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish doirasida Xalqaro taraqqiyot uyushmasi tomonidan ajratiladigan qarzlarni qaytarish, foiz va xizmat ko’rsatish hamda majburiyatlar uchun vositachilik haqi bo’yicha to’lovlarni amalga oshirishning prognoz jadvali [2-ilovaga](#) muvofiq;

Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish, sohaga axborot texnologiyalarini joriy etish va soliq organlari xodimlarining malakasini oshirish bo’yicha “yo’l xaritasi” [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

5. Moliya vaziriga O’zbekiston Respublikasi va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi o’rtasidagi Loyihani moliyalashtirish yuzasidan moliyaviy bitimni O’zbekiston Respublikasi nomidan imzolash vakolati berilsin.

6. Davlat soliq qo’mitasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi [4-ilovaga](#) muvofiq grafik bo’yicha soliq solish sohasida yangi axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlar imkoniyatlari yuzasidan soliq organlari xodimlariga o’quv mashg’ulotlarini o’tkazsin.

7. Davlat soliq qo’mitasi:

Loyiha doirasida tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini, shu jumladan xarid qilinadigan texnika hamda asbob-uskunalarni o’rnatish va montaj qilish uchun maxsus xonalar tayyorlanishini;

Loyiha o’z vaqtida va to’liq amalga oshirilishi, uning muvofiqlashtirilishi va boshqarilishi, Loyihani amalga oshirish davrida monitoring va hisobot yuritilishini ta’minlasin.

8. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi Loyiha Investitsiya dasturlariga belgilangan tartibda kiritilishini ta’minlasin.

9. Tashqi ishlar vazirligi Davlat soliq qo’mitasining talabnomalariga binoan Loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi chet ellik mutaxassislariga kirish vizalari konsullik va haqiqiy xarajatlarning o’rnini qoplash hisobidan yig’imlarni undirmagan holda rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Davlat soliq qo’mitasi raisi Sh.D. Kudbiyev hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.X. Shermatov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o’rinbosari J.A. Qo’chqorov zimmasiga yuklansin.

**O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 24-mart,  
PQ-178-son

O’zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2022-yil 24-martdagi  
PQ-178-son qaroriga  
[1-ILOVA](#)

**Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy**

**PARAMETRLARI**

				<i>ming AQSh dollari</i>	
T/r	Komponent nomi	Jami*	Moliyalashtirishning taxminiy hisobi		
			Kredit	Davlat budjeti mablag’lari	
1.	Loyihaning umumiy qiymati	72 000	60 000	12 000	

<b>2.</b>	<b>Investitsiyalar miqdori, jami</b>	<b>60 000</b>	<b>60 000</b>	
	<b>1-komponent. Soliq ma'muriyatchiligining asosiy biznes jarayonlarini avtomatlashtirish</b>	<b>45 000</b>	<b>45 000</b>	
2.1.	1.1-subkomponent — soliq organlarining yangi integratsiyalashgan axborot tizimini joriy etish	15 000	15 000	
2.2.	1.2-subkomponent — texnik infratuzilmani yangilash (Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi)	25 000	25 000	
2.3.	1.3-subkomponent — axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshqarish va rejalashtirish sohasida salohiyatni oshirish	1 000	1 000	
2.4.	1.4-subkomponent — tabiiy ofatlar xavfini va faoliyatning uzluksizligini ta'minlashni boshqarish	4 000	4 000	
	<b>2-komponent. Yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish uchun soliq to'siqlarini bartaraf etish</b>	<b>9 000</b>	<b>9 000</b>	
2.5.	2.1-subkomponent — soliq talablarini ta'minlash sohasida Davlat soliq qo'mitasining salohiyatini mustahkamlash	3 000	3 000	
2.6.	2.2-subkomponent — talablarga ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantirish	4 500	4 500	
2.7.	2.3-subkomponent — xususiy sektor bilan konstruktiv hamkorlikni rivojlantirish	1 500	1 500	
	<b>3-komponent. Kadrlar va institutsional salohiyatni mustahkamlash</b>	<b>4 000</b>	<b>4 000</b>	
2.8.	3.1-subkomponent — xodimlarni yanada samarali boshqarish uchun Davlat soliq qo'mitasining institutsional salohiyatini oshirish	1 800	1 800	
2.9.	3.2-subkomponent — davlat soliq xizmati organlarining strategik maqsadlariga erishishni qo'llab-quvvatlash uchun tashkiliy funksiyalar yaratish	800	800	
2.10.	3.3-subkomponent — davlat soliq xizmati organlari xodimlarini kasbiy rivojlantirish	1 400	1 400	
	<b>4-komponent. Notexnik komponent — loyiha boshqaruvini qo'llab-quvvatlash</b>	<b>2 000</b>	<b>2 000</b>	
<b>3.</b>	O'zbekiston Respublikasining soliq va bojxona to'lovlari qo'shgan hissasi	<b>12 000</b>		<b>12 000</b>
<b>4.</b>	Loyihani amalga oshirish davri	2022 — 2027-yillar		
<b>5.</b>	Kreditni qaytarish muddati	30 yil		
	shu jumladan, asosiy qarzni imtiyozli davri	5 yil		

Izoh. Yakuniy qiymat ko'rsatkichlari batafsil loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilishi, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha tenderlar va xizmatlarni bajarish natijalari bo'yicha aniqlanadi.

Davlat soliq qo'mitasiga Loyiha doirasida ajratilib, iqtisod qilingan mablag'larni moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, Jahon banki bilan kelishilgan holda qayta taqsimlash vakolati beriladi.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2022-yil 24-martdagi  
PQ-178-son qaroriga  
2-ILOVA

**Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasini amalga oshirish doirasida Xalqaro taraqqiyot uyushmasi tomonidan ajratiladigan qarzlarni qaytarish, foiz va xizmat ko'rsatish hamda majburiyatlar uchun vositachilik haqi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishning**

## PROGNOZ JADVALI

Qarz summasi:	60 million AQSh dollari
Qarz muddati:	30 yil
Imtiyozli davr:	5 yil
Foiz stavkasi:	1,25% + to'g'rilash stavkasi*
Majburiyatlar uchun vositachilik haqi:	0,50%
Xizmat ko'rsatganlik uchun to'lov	0,75% + to'g'rilash stavkasi**

AQSh dollari

To'lov davri	Qarz o'zlashtirilishi	Qarz qoldig'i	To'lov miqdori				To'lanishi lozim bo'lgan umumiy mablag'****
			asosiy qarz	foizlar*	xizmat ko'rsatganlik uchun to'lov**	majburiyatlar uchun vositachilik haqi***	
15.04.2022	6 000 000	6 000 000					
15.10.2022	6 000 000	12 000 000		41 480	45 140	137 250	223 870
15.04.2023	6 000 000	18 000 000		82 507	89 787	121 333	293 627
15.10.2023	6 000 000	24 000 000		124 440	135 420	106 750	366 610
15.04.2024	6 000 000	30 000 000		165 920	180 560	91 500	437 980
15.10.2024	6 000 000	36 000 000		207 400	225 700	76 250	509 350
15.04.2025	6 000 000	42 000 000		247 520	269 360	60 667	577 547
15.10.2025	6 000 000	48 000 000		290 360	315 980	45 750	652 090
15.04.2026	6 000 000	54 000 000		330 027	359 147	30 333	719 507
15.10.2026	6 000 000	60 000 000		373 320	406 260	15 250	794 830
15.04.2027		60 000 000		412 533	448 933	0	861 467
15.10.2027		59 010 000	990 000	414 800	451 400		1 856 200
15.04.2028		58 020 000	990 000	407 956	443 952		1 841 908
15.10.2028		57 030 000	990 000	401 112	436 504		1 827 615
15.04.2029		56 040 000	990 000	392 113	426 711		1 808 824
15.10.2029		55 050 000	990 000	387 423	421 608		1 799 031
15.04.2030		54 060 000	990 000	378 499	411 896		1 780 396
15.10.2030		53 070 000	990 000	373 735	406 711		1 770 446
15.04.2031		52 080 000	990 000	364 886	397 082		1 751 967
15.10.2031		51 090 000	990 000	360 046	391 815		1 741 862
15.04.2032		50 100 000	990 000	353 202	384 367		1 727 569
15.10.2032		49 110 000	990 000	346 358	376 919		1 713 277
15.04.2033		48 120 000	990 000	337 659	367 452		1 695 110
15.10.2033		47 130 000	990 000	332 670	362 023		1 684 692

15.04.2034		46 140 000	990 000	324 045	352 637		1 666 682
15.10.2034		45 150 000	990 000	318 981	347 127		1 656 108
15.04.2035		44 160 000	990 000	310 431	337 822		1 638 254
15.10.2035		43 170 000	990 000	305 293	332 230		1 627 523
15.04.2036		42 180 000	990 000	298 449	324 782		1 613 231
15.10.2036		41 190 000	990 000	291 604	317 334		1 598 939
15.04.2037		40 200 000	990 000	283 204	308 193		1 581 397
15.10.2037		39 210 000	990 000	277 916	302 438		1 570 354
15.04.2038		38 220 000	990 000	269 591	293 378		1 552 968
15.10.2038		37 230 000	990 000	264 228	287 542		1 541 769
15.04.2039		36 240 000	990 000	255 977	278 563		1 524 540
15.10.2039		35 250 000	990 000	250 539	272 646		1 513 185
15.04.2040		34 260 000	990 000	243 695	265 198		1 498 893
15.10.2040		33 270 000	990 000	236 851	257 749		1 484 600
15.04.2041		32 280 000	990 000	228 750	248 934		1 467 683
15.10.2041		31 290 000	990 000	223 162	242 853		1 456 016
15.04.2042		30 300 000	990 000	215 136	234 119		1 439 255
15.10.2042		29 310 000	990 000	209 474	227 957		1 427 431
15.04.2043		28 320 000	990 000	201 523	219 304		1 410 826
15.10.2043		27 330 000	990 000	195 786	213 061		1 398 846
15.04.2044		26 340 000	990 000	188 941	205 613		1 384 554
15.10.2044		25 350 000	990 000	182 097	198 165		1 370 262
15.04.2045		24 360 000	990 000	174 295	189 674		1 353 970
15.10.2045		23 370 000	990 000	168 409	183 268		1 341 677
15.04.2046		22 380 000	990 000	160 682	174 860		1 325 541
15.10.2046		21 390 000	990 000	154 720	168 372		1 313 093
15.04.2047		20 400 000	990 000	147 068	160 045		1 297 113
15.10.2047		18 360 000	2 040 000	141 032	153 476		2 334 508
15.04.2048		16 320 000	2 040 000	126 929	138 128		2 305 057
15.10.2048		14 280 000	2 040 000	112 826	122 781		2 275 606
15.04.2049		12 240 000	2 040 000	98 183	106 846		2 245 029
15.10.2049		10 200 000	2 040 000	84 619	92 086		2 216 705
15.04.2050		8 160 000	2 040 000	70 131	76 319		2 186 449
15.10.2050		6 120 000	2 040 000	56 413	61 390		2 157 803
15.04.2051		4 080 000	2 040 000	42 078	45 791		2 127 870